

## O'ZBEKISTONDA TA'LIMGA OID NORMATIV HUJJATLAR TAFSIFI

**Qarshiboyeva Adiba Sanjar qizi**  
ADS maktabi Xitoy tili o'qituvchisi  
E-mail: adibaqarshiboyeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda O'zbekistonda ta'limga oid normativ hujjatlar haqida ma'lumot berilgan. Pedagogik faoliyat uchun ahamiyatli bo'lgan hujjatlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlar, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari.

**Аннотация.** В данном тезисе представлена информация о нормативно-правовых документах в сфере образования Республики Узбекистан. Освещены документы, имеющие важное значение для педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** Конституция, указы Президента, постановления Кабинета Министров, законы Республики Узбекистан.

**Abstract.** This thesis provides information about regulatory documents related to education in Uzbekistan. It highlights documents that are important for pedagogical activity.

**Keywords:** Constitution, Presidential decrees, resolutions of the Cabinet of Ministers, laws of the Republic of Uzbekistan.

### Normativ-huquqiy hujjat nima?

Vakolatli davlat organi (yoki mansabdor shaxs)ning belgilangan tartibda qabul qilgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi yuridik hujjatlar normativ-huquqiy hujjatlar deyiladi.

### Normativ-huquqiy hujjatlarning qanday turlari mavjud?

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".** Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil qilinsin, Markaz xodimlarining soni 12 kishiga ko'paytirilsin va uning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilansin:

Xalqaro e'tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

o'rganuvchilarni chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlashni to'lov asosida test o'tkazish (jumladan, Internet orqali masofaviy) va davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatini berishni tashkil etilsin. [1]

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.09.2020 yildagi PQ-1971-son "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**. Chet tillarini o'rganishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun chet tillari yuqori malakali o'qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti chet tillari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining respublika bazaviy ta'lim va ilmiy-metodik muassasasi etib belgilansin.[2]

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 16.02.2026 PF-4958 "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"**. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'limning noyob tizimi yaratildi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish samaradorligini oshirishga, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning rolini kuchaytirishga yo'naltirilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi.

2013-yilning 1-yanvaridan boshlab doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi joriy qilinishi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini umum qabul qilingan xalqaro talablar va standartlarga yaqinlashtirishda muhim qadam bo'ldi. O'tgan davr ichida barcha zarur normativ-huquqiy baza shakllantirildi, o'rnatilgan talablarga muvofiq oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarining faoliyati, doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlash va himoya qilish tashkil etildi.

Shu bilan birga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur'atlar oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg'or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta'lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimining sifati va samaradorligini tubdan oshirish, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Fanlar akademiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, shuningdek tasarrufida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjud bo'lgan boshqa vazirlik va idoralarning qator xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotiga muvofiq 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali:

dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura;

dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'ini bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimini joriy qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin. [3]

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 15.06.2022 yildagi PQ-279 "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"**. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari tasarrufida ushbu ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning taklifi asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi; [4]

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 02.02.2024 yildagi PQ-54 "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadida:

Ta'lim sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish, ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonlari va xizmatlar ko'rsatishni yangi tamoyillar asosida tashkil etish, ta'lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida davlat muassasasi shaklida "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi (keyingi o'rinlarda — Loyiha ofisi) tashkil etilsin.

"Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining asosiy faoliyat yo'nalishlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.[5]

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish joyizki PF-4958,PQ289,PQ-54, PQ-279 sonli qarorlari aynan pedagogik faoliyatim uchun ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.09.2020 yildagi PQ-1971-sonli "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorida;

Chet tillarini o'rgatishning zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalariga ega bo'lgan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun chet tillari bo'yicha yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash;

uzluksiz ta'lim tizimining barcha ta'lim muassasalarida, shuningdek chet tillari bo'yicha malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash muassasalarida xalqaro tajribani o'rganish asosida chet tillarini o'qitishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish va joriy etish; bandi eng ahamiyatli hisoblanadi.

1. Bugungi kunda O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyaviy texnologiyalariga ega bo'lgan auditoria va maruza honalari mavjud bo'lib. Ulardan istalgan tarza foydalanib, darsni yanada qiziqarli va samari qilish imkoniyatlari mavjud.

2. O'qituvchilarning malakali xalqaro konsultantlarni jalb etgan holda butun ta'lim tizimi uchun chet tillari bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq tarzda olib borilmoqda.

3. O'qituvchilarning malaka oshirish imkoniyatini yanada oshirgan holda het el universitetda malaka oshirish imkoniyatlari berilmoqda

Bularning hammasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining faoliyatini yanada takomillashtirishga yordam bermoqda.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2012 yildagi PQ-1875-son qarori. "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2020 yildagi PQ-1971-son qarori. "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi PF-4958-son farmoni. "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida".

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.06.2022 yildagi PQ-279-son qarori. "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida".

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2024 yildagi PQ-54-son qarori. "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".